

**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ТАРИХ ВА МАДАНИЙ МЕРОС ФАКУЛЬТЕТИ
ИСЛОМ ТАРИХИ ВА МАНБАШУНОСЛИГИ, ФАЛСАФА
КАФЕДРАСИ**

**“ШАРҚ ТИЛЛАРИ ТАЪЛИМИ ВА БУХОРИЙЛАР МЕРОСИНИ
ЎРГАНИШ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ”
МАРКАЗИ**

**“АҲМАД ИБН ҲАФС КАБИР БУХОРИЙ
МЕРОСИ ВА УНИНГ ИЛҚ ШАРҚ
РЕНЕССАНСИ ҲАМДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ
ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ЯРАТИШДАГИ
ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ” МАВЗУСИДАГИ**

**ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН
ТЎПЛАМИ**

2022 йил 16-17 июнь

Бухорои шариф – 2022

бир маҳаллий шоир-ёзувчилар “синфийлик”, “ғоявийлик” тушунчаларини ўта бир томонлама, ғоятда тор кўламда талқин қилиб, эркин ижодкорларни миллатчиликда айблаганлар.

SUXAREVA O.A. TADQIQOTLARIDA O'ZBEKISTONDA ISLOM DINI BILAN BOG'LIQ AN'ANALAR TAHLILI

Guli Bahriddinovna TO'RAYEVA

Buxoro tarixi kafedrasi o'qituvchisi, BuxDU

Olga Aleksandrovna Suxareva ensiklopedist olim bo'lib, u etnograf, tarixchi – sharqshunos, filolog – eron (fors) tillari bo'yicha, san'atshunos va diniy tadqiqotchi hisoblanadi.

Suxareva Olga Aleksandrovna 1903 yil 15 fevralda Samarqand shahrida tug'ilgan. 15 yoshidan boshlab mahalliy aholi hayotini o'rganishni boshlaydi. U tojik tilini mukammal o'rganadi va o'zbek tilini yaxshi bilganligi sababli ularning hayotidagi nozik nuqtalarini ilg'aydi. Olga Aleksandrovna etnografikni og'ir mashaqqatli mehnat emas, balki tabiiy hol deb tushungan. Shu sababli katta etnograf, materiallar bilimdoni, balki yirik tadqiqotchi ham bo'lgan. Olimaning hayoti va ilmiy faoliyati haqidagi ma'lumotlar – qizi Yelena Rubinova Akbalyan, shogirdlari va zamondoshlari xotiralari – T.A. Jdanko va Karmishevalarning 1955-56, 1958, 1966 yillardagi yozishmalari asosidagi maqolalar orqali yozib qoldirilgan.

Ko'plab tadqiqot ishlari qatori, Moskvada O.A. Suxarevaning “O'zbekistonda islom” risolasi ham 1960 yild nashr qilingan.

Muallif risolaning birinchi bobida Islom dinining yuksalishi va tarqalishi jarayoni haqida fikr bildirgan. Dunyoviy din sifatida islom dinining Arab mamlakatlari, Eron, O'rta Osiyoga va Shimoliy Afrika davlatlariga tarqalishi jarayoni va mazhablarga bo'linib ketishi, ayniqsa, sunniylar va shialar oqimlari qarashlaridagi farqlar va e'tiqod qadriyatlarini haqida ma'lumot berilgan. Muhammad payg'ambar hayot yo'llari, hijrat qilishlari haqida ham ma'lumotlar diqqatga sazovor.

Qutaybaning harbiy harakatlari, ayniqsa, Buxoro va Samarqandda arablashtirish siyosati, arab mahallalarining shakllanib borishi haqida ma'lumotlar Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asariga asoslanib keltirilgan.

Risolaning ikkinchi qismida - Musulmonlarning diniy burchlari Musulmon marosimlari haqidagi ma'lumotlarni muallif ikkiga bo'lib tahlil qilgan. Islom dini bilan bog'liq asosiy beshta farz Kalima, Namoz, Ro'za, Haj ziyorati, Zakot berish tartiblarini etnografik nuqtai nazardan tahlil qilgan. Namoz o'qish tartiblari, hattoki bozorlarda savdogar va hunarmandlar namoz vaqtida savdo rastalarini shundayligicha qoldirib, namoz o'qishga shoshilishlari haqidagi fikrlari, haftaning juma kunida shaharning eng mashhur masjidlarida juma namozi o'qilishini muallif hattoki sayyoh Meyendorfning esdaliklarida ham ta'kidlanganligiga urg'u beradi.

Olima O.A. Suxareva islom dini bilan bog'liq to'y marosimlari sirasiga xatna – to'yi ya'ni sunnat to'yi, juma namozi bilan bog'liq an'analar, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti singari marosimlarning xalq orasida nishonlanishi haqida qiziqarli faktlar keltiradi. Buxoro shahridan 3 kilometr uzoqlikdagi Shamsobod Namozgohida bayram sayllarining o'tkazilishi borasida ham tarixiy ma'lumotlar beradi. Shuningdek, Samarqand, Toshkent shahrida ayollar tomonidan Mavlud marosimlarining o'tkazilishi va udumlari bilan bog'liq etnografik tahlillarni keltiradi.

Tarixiy – etnografik risolaning – keyingi qismi - Islom mifologiyasi va qadimgi e'tiqod an'analari deb nomlanadi. Risolaning bu bobida islom dinida sunniylar va shia mahzabidagi aholi diniy qarashlarida mavjud ulug'langan shaxslar payg'ambarlar, Avliyo-anbiyolar, Buxoroda Siyovush, Samarqandda Qussam ibn Abbos nomi bilan bog'liq diniy afsonalar, Bahovuddin Naqshbandiy maqbarasida o'tkaziladigan Qizil gul sayli bilan bog'liq diniy an'analar haqida fikr bildiriladi.

Aholining mozar – qabristonlar haqidagi dunyoqarashi ham o'zgacha ekanligi, hatto tibbiyot sohasida ba'zi bir kasalliklarni davolash maqsadida bu yerlarga tashrif buyurishlari

haqida muallif ma'lumot beradi .XVI asrda yaratilgan “Tarixi Mullazoda” asari Buxoroda mavjud qabristonlar haqida ma'lumot beruvchi yo'l ko'rsatgich vazifasini bajarganligi ta'kidlanadi.

Toshkentdagi Shayx Xovandi Toxur,Samarqandda Xo'ja Ahror Valiy , Buxorodagi Jo'ybor xo'jalari mavzoleyi-Chorbakr majmuasi ,Sayfuddin Boxarziy maqbaralari tasavvuf namoyondalariga tegishli ekanligi aytib o'tiladi .

Tasavvuf ta'limoti haqida ham muallif bir qancha sharhlar keltiradi .Shu o'rinda tasavvuf haqidagi tarixiy dalillarga murojaat qilsak ,IX — XIII asrlarda O'rta Osiyo davlatlarida tasavvuf — so'fiylik ta'limoti rivoj topdi. So'fiylik (tasavvuf) islomdagi falsafiy diniy oqimdir. Voiz Koshifiy «Futuvatnomai sultoniya» asarida: «... tasavvuf tariqat maqolalaridan biridir», deydi. U «so'fiy» qadimiy bo'lib, Odam alayhissalom o'gillari Shish alayhissalom davrida paydo bo'lganligini aytadi.

Rus olimi I. M. Petrushevskiyning fikricha , ingliz sharqshunosi R. Nikolson XI asrgacha bo'lgan yozma manbalarda «sufizm» tushunchasining yetmish sakkiz ma'nodagi talqinini aniqlagan ekan. Nasafiyning Xoji Ahmad Yassaviy risolasida ham islom dinida «So'fiylik oqimi, darveshlar payg'ambar zamonasidayoq vujudga kelgan», deyiladi. Abulhakim Shar'iy Juzjoniy «Tasavvuf ta'limotining ildizlari» («Muloqot», 1995, № 1—2) maqolasida tasavvuf so'zi «...«so'f», yani kiyimni kiymoq, so'fiy bo'lmoq va shuningdek haq yo'lidan yuruvchi bo'lmoq va darveshlar tariqasi ma'nolarida qo'llanadi. Tasavvuf so'zi bir istiloh (atama) sifatida uning payrovlari aqidasi binoan nafs (ichki dunyo)ni pokizalash natijasida inson qalbida haqiqat yog'dusi porlay boshlaydi» (31—32-bet), deydi. Uning fikricha, tasavvuf va irfon tushunchalari bir-biriga yaqindir, shu tufayli har ikkala so'z bir ma'noda ham ishlatiladi.

Muallif tasavvuf tariqatlari haqida fikr yuritar ekan, Farg'onada Qodiriya tariqati Abdukarim G'iloniy faoliyati bilan ,Xorazmda Kubraviya tariqati , Turkistonda Yassaviya tariqatlari ,Buxoroda Naqshbandiya tariqatlari bilan bog'liq falsafiy –g'oyaviy diniy tushunchalarni tahlil qiladi .

Qalandarlar ularning yashash tarzi , kiyimlari-janda ,kuloh va kamar taqib yurganliklari haqidagi ma'lumotlar ham beriladi .

Xulosa qilib aytganda ,etnograf olima O.A. Suxarevaning “O'zbekistonda islom ” risolasi mahalliy xalqning diniy e'tiqodi ,qadriyatlar va urf –odatlar to'g'risida ma'limot beruvchi boy tarixiy-etnografik manbadir .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жданко Т. А., Кармышева Б. Х. Ольга Александровна Сухарева // Советская этнография, 1983, № 6, с. 158—161
2. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). Ташкент, 1958. 145 с.;
3. Ислам в Узбекистане. Ташкент, 1960. 86 с.;
4. Бухара. XIX — начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). М., 1966. 326 с.;
5. Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. М., 1975. С. 5-93;
6. То'rayeva G. В. О.А.Suxareva Tarixchi-etnograf olima. Вестник Института сокровищница наука.-2019 Тожикистон. 443-447бетлар
7. Гули Бахритдиновна Тўраева, Феруза Холмаматовна Ўтаева, Нилуфар Ахматовна Жумаева О.А.Сухарева таджикотларида Бухоро тарихи ва этнографиясининг ўрганилиши 2021/Scientific progress Ўзбекистон

Utayeva F.X.	Buxoro IP-yigiruv fabrikasida kutubxona, sport to'g'araklari faoliyati.	357
Исаев Й.	Муҳаддис Бужайрийнинг ҳадис илмида тутган ўрни.	360
Umarova M.S.qizi	«Shajarayi Turk» asari bo'yicha sharq va g'arb olimlarining olib borgan tadqiqotlari.	363
Fayzieyev I.SH.	Tarix- kelajak kaliti	367
Меликова М.Н.	Философский анализ концепции совершенной личности в накшбандизме	369
Norova M.F. Khudoykulova M.	Views On Humanity In Kubravian Doctrine	373
Eshmamatov B. Rahmatov F.	Nemis tili darslarida zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanish	375
Эшпулатов И.С.	Ибн Сино фалсафаси ва унинг инсон камолодаги аҳамияти	377
Rahmonova D.	Nemis klassik falsafasi vakillarining ijtimoiy qarashlari	380
Файзиходжаева Д.И.	Болтаев М. Мантқиқшунос олим	382
Файзиходжаева Д.	Шайх Юсуф Ҳамадоний: инсон ва коинот алоқадорлиги	384
Мухсимов Д.	Тасаввуф таълимоти ва уни ўрганиш масалалари.	387
Намозова К.Б.	Замонавий тилшуносликда тўй маросимлари лексикаси миллий-маданий хусусиятларининг ўрганилиши.	390
Bahriyeva Aziza	O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.	394
Сафарова Н.О.	Ҳанафинияда бағрикенгликнинг фикҳий асослари	397
Ражабова Д.Я.	XIX аср 2-ярми-xx аср бошларида Бухоро ислом конфессиясидаги ихтилофлар хусусида	400
Ҳакимхўжаев М.М. Усмонходжаева М.А.	Фалсафа илмида имманиул Кантнинг ўрни.	403
Шамсутдинова Н.К.	Идейно- теоретические и философские принципы Абу Али Ибн Сины в развитии мусльманской культуры.	405
Бешимов Б.И.	Терроризмнинг ривожланиш динамикаси ва дискурс концепти ҳамда унга қарши курашда аждодлар меросидан фойдаланиш масаласи	409
Shirinov A.Q.	Issues Of Human Development In Central Asia: Country Analysis Of Uzbekistan	411
Сативалдиев Пулат	Ватанпарварликда ворисийликнинг онтологик моҳияти.	414
Альмеев Р.В.	Святы́е места Бухары: мазар Хазрата Ходжа Мухаммада Порсо в Бухаре и его вклад в мировой успех духовного братства Накшбандийа.	415
Исомиддинов Й.Ю.	Фитрат фалсафий меросида гуманистик ғоя ва қарашлар таҳлили. (Абдурауф Фитратнинг “Мухтасар ислом тарихи асари” мисолида)	421
Узақова Л.А.	Алишер Навоий ижодида диний бағрикенглик масалалари	424
Voltayev V.V.	Abu Hafs Kabir – Imom Hojatbaror	425
Каримов Б.Ш.	Муҳаммад Назарович Болтаевнинг миллий социологияни ривожлантиришдаги ўрни ва роли.	428
Саданова Д.А.	Жамият тараққиёти: илмий-назарий ёндошувдаги ўзига хосликлар.	433
Раупова Р.С.	Хожа Исмаил Бухорий меросининг ахлоқий-тарбиявий жиҳатлари ва унинг ёшлар тарбиясидаги ўрни.	436
Ғафуров Д.О.	Оила ва никоҳда исломий муносабатлар тасаввуфий таълимотлар асоси	438
Султонова Н.Э. Султонов Ш.Ж.	Ўзбекистон Республикасида гендер тенглик стратегияси ва аёлларнинг кадр-қиммати масалалари.	441
Бозорова Р.Ш.	“Меҳр” тушунчасининг фалсафий таҳлили	444
Рашидов О.Р.	Ўзбек адабиётида миллий зиёлилар ҳамда большевиклар ўртасидаги мафкуравий кураш	446
To'rayeva G.B.	Suxareva O.A. tadqiqotlarida O'zbekistonda islom dini bilan bog'liq an'analar tahlili.	449
Ҳамзаев Ш.А.	Хожа Аҳмад Яссавий илмий-ижодий меросининг ўрганилиши	451
Шодиев Ж.Ж.	Маърифатли жамият ва ижтимоий маънавий муҳит барқарорлигини таъминлаш орқали инсон қадрини оширишга эришиш	454